



POSTMODERNIZMDA TANA VA ERKINLIK MUNOSABATI

Po'latov Anvar akmal o'gli,

O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa kafedrası o'qtuvchisi.

Annotatsiya; Ushbu tezisda postmodernizm falsafasi doirasida tana va erkinlik tushunchalari o'rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi. Postmodern tafakkurda tana nafaqat biologik mavjudot sifatida, balki madaniy, ijtimoiy va semiotik konstruksiya sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada Mishel Fuko, Judith Butler, va Jean Baudrillard kabi postmodern mutafakkirlarning tanaga oid qarashlari hamda ularning erkinlik konsepsiyasiga ta'siri tahlil etiladi. Postmodernizm da erkinlik individual tanlov yoki iroda emas, balki diskurslar, hokimiyat munosabatlari va madaniy belgilar tizimida shakllanuvchi narsa sifatida ko'riladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, postmodern tafakkurda tana insonning erkinlik imkoniyatlari va chegaralarini ifodalovchi markaziy metafora sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: postmodernizm, tana, erkinlik, Mishel Fuko, Jean Baudrillard, Lyotard, Freyd, diskurs, hokimiyat, identitet.

Asosiy qism. Bugungi kunda inson tanasi haqida gapirish qiyinlashgan, chunki biz yashayotgan madaniyat ko'pincha postmodern deb ataladi va bu o'ta o'zgaruvchan va noaniq. Shu sababli tanani axloq, siyosat va biotexnologiya o'rtasidagi chorrahada ko'rib chiqish kerak. Ya'ni, hozirgi davrda inson tanasi faqat biologik yoki shaxsiy narsa emas - u axloqiy nima to'g'ri? siyosiy kim nazorat qiladi? va biotibbiy texnologiya bilan o'zgarishi mumkinmi? masalahamdir. Tanani erkinlikdan ajratish - zamonaviy insonning asosiy belgisi. Bu nimani anglatadi? Oldin tanamiz bizning o'zligimiz deb qaralgan - ya'ni, kimligimiz tanamizda aks etgan. Endi esa odamlar tanani o'zgartirishi, nazorat qilishi, boshqarishi mumkin



deb hisoblaydi. Masalan: plastika operatsiyalari, gender o'zgarishlari, sun'iy organlar, genetika va hokazo. Demak, tana endi "men"ning bir qismi emas, balki "men boshqaradigan narsa" sifatida ko'riladi. Tananing ikki xil talqini "Inson tanasiga qarashda ikkita qarama-qarshi tendensiya bor: Bir tomondan:tana ulug'lanadi — u bizning shaxsiylikimiz, go'zalligimiz, o'zligimizning timsoli. Masalan: fitness, moda, selfi madaniyati — tanani ideal tarzda namoyish etish. Ikkinchi tomondan:Tana nazorat qilinadi — inson uni "boshqarish", "tuzatish", "cheklash" orqali o'z erkinligini ta'minlashga urinishadi. Masalan: dietalar, kosmetik muolajalar, tibbiy texnologiyalar orqali o'zini yaxshilash. Natijada paradoks paydo bo'ladi; odam bir vaqtning o'zida tanasini sevadi va undan qo'rqadi, uni ko'rsatadi va yashiradi, uni ozod qiladi va nazorat qiladi.

Falsafiy antropologiyada tana faqat biologik narsa ham emas, tana nafaqat go'sht va qon (biologiya), nafaqat madaniyat, balki axloqiy, ruhiy, ijtimoiy va siyosiy birlikdir. Demak, haqiqiy erkinlik — tanani inkor etish yoki uni butunlay texnologik boshqarish emas,balki tana va ong, erkinlik va biologiyaning uyg'unligini anglashdir. Inson o'z tanasini boshqaradigan loyiha sifatida ko'radi . Bu insonni o'zligidan ajratadi. Erkinlik tanani o'zgartirish orqali erkinlik izlanadi. Bu aslida tanaga qarshi kurashdir. Bugungi madaniyatda biz tanamizni ham sevamiz, ham nazorat qilamiz. Biz uni ozodlik ramzi deb bilamiz, lekin shu bilan uni boshqarish vositasiga aylantiramiz. Shuning uchun haqiqiy erkinlik — tanadan qochishda emas, balki uni to'liq insoniy mavjudot sifatida tushunishda.

Zamonaviy dunyoda tana va ong o'rtasidagi ajratish (dissotsiatsiya) muammosi muhim savol sifatida ko'tarilgan. Falsafa, psixoanaliz va madaniy ijtimoiy harakatlar xususan, Freydning jinsiy istak nazariyasi ¹va XX asr o'rtalaridagi "seksual inqilob" tanani va jinsiy istakni shaxsiy erkinlik kontekstida qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Biroq, bu jarayon natijasida tananing axloqiy va

¹ Freud, S. (1900) *Die Traumdeutung = The Interpretation of Dreams*. Translated by A.A. Brill (authorized translation 1913). New York: Macmillan.



ontologik ahamiyati ko‘pincha e‘tibordan chetda qolmoqda. Tanani erkinlik va ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi murakkablik Freydning nazariyasiga ko‘ra jinsiy istakning ong osti kuch sifatida shaxsiy tajribada qanday muhimligini ko‘rsatadi. Seksual inqilob esa istakni shaxsiy erkinlik va his-tuyg‘ularni ifoda etish huquqi sifatida qadrlashni targ‘ib qildi. Biroq, bu erkinlik ko‘pincha texnologik va iqtisodiy tizimlarning iste‘molchi mantiqiga bog‘lanib, erotikani jamiyatda keng tarqalgan va boshqariladigan fenomen sifatida shakllantirdi. Tananing shaxsiyat, jinsiylik, erkinlik va madaniy konstruksiya sifatida murakkab va qarama-qarshi o‘rni ta’kidlanadi. Tana va shaxs o‘rtasidagi ajratish zamonaviy va feminist fikrlarda turlicha talqin qilinsa-da, ularni uyg‘unlashtirish va tana biologiyasi bilan shaxs erkinligini birlashtiradigan ontologik konsepsiya hali shakllanmagan. Bu masala axloqiy, madaniy va siyosiy nuqtai nazardan yanada chuqur o‘rganilishi zarur.

Michel Fuko “Nazorat va Jazolash”² asarida aytganidek, “inson tanasi” bu adolat yoziladigan joy, ya’ni jamiyat adolatni tanada ifodalaydi. Ammo XVIII asr oxiri, ya’ni modernlik boshlangan davrda, tananing ma’nosi butunlay o‘zgaradi. Oldin (o‘rta asrlarda) adolat — jamoat oldida jismoniy jazolash orqali ko‘rsatilardi. Odamlar jinoyatchining azobini ko‘rib, “adolat o‘rnatildi” deb hisoblardi. Lekin keyin jazolash usuli o‘zgardi: jazoda tananing azobi emas, balki erkinlikdan mahrum qilish muhim bo‘ldi. Endi jismoniy og‘riq emas, huquqlarni to‘xtatish jazoning maqsadiga aylandi. Natijada, qotil yoki qiynovchi o‘rnini endi psixolog, shifokor, nazoratchi, o‘qituvchi kabi “texnik mutaxassislar” egalladi — bu adolat tizimining “insoniy” ko‘rinishdagi nazorat shakli bo‘ldi. Estetika va tananing yo‘qolishi jarayon sifatida san’atda ham aks etdi. XVII–XVIII-asr boshida teatrda aktyorlarning tana harakati, libosi, uslubi orqali his-tuyg‘ular ifodalanardi. Ammo keyinchalik, bu uslub sun’iy bo‘lib qoldi — hissiyot odami haqidagi romanlarda nozik sezgi sinfiy belgiga aylandi. Ya’ni kim o‘z hissiyotini ochiq ko‘rsata olsa, u

² Foucault, M. (1975) *Discipline and Punish: The Birth of the Prison*. Translated by Alan Sheridan. New York: Vintage



madaniyatli, yuqori tabaqa vakili hisoblanardi. Kimda bu noziklik yo‘q bo‘lsa, u past va madaniy jihatdan zaif deb baholanardi. Demak, ta’bu ijtimoiy qonun darajasiga ko‘tarildi. Bu Bourdieu aytgandek “ta’bu – qonundir” degan holat. Inson endi o‘z his-tuyg‘usini jamoat oldida ko‘rsatmaydi. Sovuq, sokinlik, xotirjamlik qadrlanadi. Natijada, inson tanasi san’atdan va sezgidan tobora uzoqlashadi. Bu — Eagleton va Ferry yozganidek, tanani ajratish tarixi — ya’ni tanani jamiyatdan va siyosatdan uzish jarayoni.

Adolat va haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlik: Tarixan “adolat” har doim “haqiqat” bilan bog‘langan. Lekin Fuko, Marks va keyingi faylasuflar shuni ko‘rsatadiki, haqiqat ham tarixiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi. Har bir matn yoki voqea o‘z davrining g‘oyaviy (ideologik) muhitida shakllanadi. Shuning uchun tanqidchi (yoki adolat izlovchi) har doim “yashirin haqiqatni ochish”ga harakat qiladi. Ammo postmodernizm bu g‘oyani ham shubha ostiga qo‘yadi: “Haqiqat” degan narsa aslida ko‘rinish va yo‘qolish o‘rtasidagi tezlik bilan belgilanadi. Bugungi siyosat — bu aynan “ko‘rinish siyosati”: hamma narsa “shou”, “teleko‘rsatuv”, “spektakl”ga aylanadi (Debordning “Jamiyat tomoshasi” g‘oyasi). Masalan, Argentinadagi “Plaza de Mayo” onalari yo‘qolgan farzandlarini eslab jim turish orqali “ko‘rinmas adolat”ni ifodalaydilar. Bu — siyosatning ko‘rinish va g‘oyib bo‘lish o‘rtasidagi o‘yini.

Postmodernizmda bilimning inqirozi : Endi bilimning o‘zi ham beqaror bo‘lib qoldi. Oldin biz “biluvchi subyekt” va “bilinadigan obyekt” o‘rtasida barqaror aloqaga ishonardik. Endi bu aloqa ham tarix tomonidan buzilgan. Kant bu muammoni hali XVIII asrda ko‘rgan. U shunday degan: Analitik aql dunyoni tushuntira oladi, lekin dunyo haqidagi yangi bilimni yaratmaydi. Kant “priori”³ tushunchasini ilgari surgan — ya’ni aql dunyoni faqat tasdiqlamaydi balki yangicha shakllantiradi deb hisoblagan. Dunyo bizni hayratga solishi, fikrni yangilashi kerak

³ Kant, I. (1787) Kritik der reinen Vernunft. 2- n. Riga: Johann F. Hartknoch.



— bu haqiqiy bilim hodisasi bo‘ladi. Postmodernizm ham shu ruhda: bilim natija emas, voqea ya’ni bilish jarayonidir. Postmodernizmda Haqiqat endi voqea shaklida “bilish” endi barqaror haqiqatni topish emas, balki “bilish hodisasi”ning o‘zini boshdan kechirishdir. Bu “metanarrativlar”ga (katta nazariyalarga) ishonchsizlikni bildiradi — Lyotard aytgandek, postmodernizm bu “katta hikoyalarga ishonchsizlik” davridir. Ya’ni: biz endi yagona “haqiqat”ga ishonmaymiz — har bir holat alohida voqea sifatida baholanadi.

Postmodernizmda adolat – hodisa sifatida har bir hodisa alohida bo‘lsa adolatni qanday o‘lchaymiz? Agar umumiy me’yor bo‘lmasa, nimaga tayanamiz? Habermas bu muammoni muloqotli oqilona kelishuv orqali hal qilishni taklif qiladi — ya’ni insonlar ochiq, mantiqli suhbatda kelishuv topishlari kerak. Ammo Lyotard bunga qarshi: u deydi — kelishuv aslida fikrning o‘limi. Chunki haqiqiy tafakkur nizo orqali rivojlanadi, kelishuv esa fikrni to‘xtatadi. Shuning uchun postmodern siyosat dissensusga ochiq bo‘lishi, ya’ni fikrlar to‘qnashuvidan yangi adolat yaratishi kerak.

Levinas (The Other) asarida boshqalar bilan yuzma-yuz uchrashuvni axloqning asosi deb biladi. Uningcha: Boshqalarning yuzi — bu himoyasiz, zaif, ochiq nido. Bu nido bizdan javob kutadi. Demak, biz adolatli bo‘lishimiz kerak, lekin oldindan belgilangan qonun asosida emas — har safar yangi hodisa sifatida, o‘zaro uchrashuvda adolatni yaratishimiz kerak. Fuko uchun: tananing yo‘qolishi – adolatning yo‘qolishidir. Lyotard uchun: haqiqat endi katta tizimlarda emas, balki voqealarning o‘zida yashaydi. Levinas uchun: adolat — bu Boshqa bilan to‘qnashuvda vujudga keladi. Shuning uchun postmodern davrning vazifasi: “just politics” — ya’ni haqiqiy adolatli siyosatni emas, balki faqat adolatli bo‘lishning hodisasini topishdir.

Xulosa. Postmodernizm inson mavjudligini markazdan siljitib, uni ko‘plik, bo‘linuvchanlik va o‘zaro ta’sir jarayonida qayta talqin etadi. Bu jarayonda tana — endi shunchaki biologik haqiqat emas, balki madaniyat, hokimiyat va diskurslarning



kesishgan joyi sifatida namoyon bo'ladi. Tana orqali inson jamiyat tomonidan yozilgan ma'nolarni yuklaydi, biroq ayni paytda o'sha ma'nolarni buzish, o'zgartirish va yangicha talqin etish imkoniyatiga ham ega. Erkinlik esa postmodern kontekstdagi eng noaniq, ammo eng chuqur tushunchalardan biridir. U endi mutlaq ozodlik sifatida emas, balki cheklovlar orasidagi ijodiy harakat, hokimiyat tuzilmalarida o'z ovozi topish jarayoni sifatida anglanadi. Demak, postmodern tafakkurda erkinlik — chegarasiz holat emas, balki chegaralarni anglash va ularni qayta yozish qobiliyatidir. Shu ma'noda, tana postmodern subyektning yagona haqiqiy joyi sifatida qoladi — u orqali inson o'z erkinligini tajriba qiladi, uni yo'qotadi, so'ngra yana yangidan yaratadi. Tana — postmodern davrning sukunati va isyon, bo'ysunish va ozodlik, mavjudlik va yo'qlik o'rtasidagi dialektik maydonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Freud, S. (1900) *Die Traumdeutung* The Interpretation of Dreams. Translated by A.A. Brill (authorized translation 1913). New York: Macmillan.
2. Foucault, M. (1975) *Discipline and Punish: The Birth of the Prison*. Translated by Alan Sheridan. New York: Vintage
3. Kant, I. (1787) *Kritik der reinen Vernunft*. 2- n. Riga: Johann F. Hartknoch.